

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori

Ochiq ma'lumotlar taqdim etilishi hisobga olingan holda Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'g'ri plami, 2015 y., 32-son, 428-modda)

Mahalliy veb-saytlarni, raqobatbardosh dasturiy mahsulotlar va xizmatlar ichki bozorini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shuningdek Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat organlari va ularning faoliyati to'g'risidagi ochiq axborotdan foydalanishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligining jismoniy va yuridik shaxslarga mashinada o'qiladigan formatdagi axborotdan ko'p marotaba, erkin va bepul foydalanish imkonini beruvchi Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini doirasida Ochiq ma'lumotlar portalini ishga tushirish to'g'risidagi takliflariga rozilik bildirilsin.

2. O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portalini to'g'risidagi nizom [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalini shakllantirish va rivojlantirish uchun mas'ul organ etib belgilansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

ikki hafta muddatda Ochiq ma'lumotlarni shakllantirish, ularni joylashtirish va ularni qayta ishlash [reglamentini](#) ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

bir oy muddatda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlarida va O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida majburiy e'lon qilinishi lozim bo'lgan ushbu organlarning Ochiq ma'lumotlar to'g'ri plamlari ro'yxati (keyingi o'rinlarda Ro'yxat deb ataladi) belgilangan tartibda ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun 2013 yil 2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi amalga oshirilishini muvofiqlashtirish respublika komissiyasiga (keyingi o'rinlarda Respublika komissiyasi deb ataladi) kiritilsin;

Ro'yxat respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlangandan keyin ikki kun muddatda u Internet tarmog'idagi O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalida e'lon qilinishini ta'minlasin.

5. Belgilansinki, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida joylashtiriladigan axborotning o'z vaqtida taqdim etilishi va ishonchliligi uchun shaxsan javob beradilar.

6. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari:

ikki hafta muddatda ochiq ma'lumotlar to'g'ri plamlari O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida e'lon qilinishi masalalari bo'yicha mas'ul mansabdor shaxs tayinlanishini;

Respublika komissiyasi tomonidan Ro'yxat tasdiqlangandan keyin bir oy muddatda o'z rasmiy veb-saytlarida Ochiq ma'lumotlar bo'yimi tashkil etilishini va unda Ro'yxatga muvofiq ochiq ma'lumotlar to'g'ri plamlari e'lon qilinishini;

o'z rasmiy veb-saytlarida va O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida e'lon qilindigan ochiq ma'lumotlar to'g'ri plamlari o'z vaqtida yangilanishini ta'minlasinlar. 1 / 7

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari R. S. Azimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOEV

Toshkent sh.,

2015 yil 7 avgust,

232-son

Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 7 avgustdagi 232-son [qaroriga](#)
ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali to'g'risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalining maqsad va vazifalarini, shuningdek «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq Portal operatori, ochiq ma'lumotlarni etkazib beruvchilar va Portal foydalanuvchilari o'rtasidagi zaro hamkorlik tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali (Portal) - Internet tarmog'idagi O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali doirasida faoliyat ko'rsatuvchi hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ochiq ma'lumotlarini joylashtirish uchun mo'ljallangan, ochiq ma'lumotlarni e'lon qilishda va ulardan foydalanishda Portal operatori, ochiq ma'lumotlarni etkazib beruvchilar va foydalanuvchilar o'rtasidagi zaro hamkorlikni ta'minlovchi axborot resursi;

ochiq ma'lumotlar - ko'p marotaba, erkin va bepul foydalanish maqsadida mashinada o'qiladigan formatda Internet tarmog'ida joylashtirilgan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati to'g'risidagi axborot;

mashinada o'qiladigan format - ma'lumotlarni dasturiy qayta ishlashni ta'minlovchi, ushbu ma'lumotlarni taqdim etishning elektron formati;

ochiq ma'lumotlar to'g'ri plami - ochiq ma'lumotlarning bir turdagi elementlari va ularni tavsiflovchi atributlar majmui;

ochiq ma'lumotlar to'g'ri plamingi pasporti - ochiq ma'lumotlar to'g'ri plamini bir xil identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ushbu to'g'ri plam to'g'ri risidagi ma'lumotlar majmui;

Portal operatori - Portaldan foydalanish bo'yicha faoliyatni, shu jumladan Portal ma'lumotlar bazalaridagi axborotni qayta ishlashni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

ochiq ma'lumotlarni etkazib beruvchi (etkazib beruvchi) - Portal operatoriga Portalda joylashtirish uchun ochiq ma'lumotlar to'g'ri plamlarini taqdim etuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari;

foydalanuvchilar - Portaldan foydalanib ochiq ma'lumotlardan foydalana oluvchi jismoniy va yuridik shaxslar.

3. O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali ishini tashkil qilish ushbu Nizomga [ilovaga](#) muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

II. Portalning maqsadi va vazifalari

4. Portal foydalanuvchilarga Internet tarmog'idagi ochiq ma'lumotlardan foydalanishning yagona nuqtasini taqdim etish va joylashtirilgan ochiq ma'lumotlarning dolzarbligi masalalari bo'yicha foydalanuvchilarning ochiq ma'lumotlarni etkazib beruvchilar bilan teskari aloqasini ta'minlash,

yangi ochiq maâ€™lumotlarni eâ€™lon qilish toâ€™gâ€™risidagi takliflarni koâ€™rib chiqish va ochiq maâ€™lumotlarni olishda foydalanuvchilar uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, etkazib beruvchi faoliyatining ochiq-oshkoraligini taâ€™minlash va Portalda joylashtiriladigan ochiq maâ€™lumotlar yordamida samarali iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun foydalanuvchilarga shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil qilinmoqda.

5. Quyidagilar Portalning asosiy vazifalari hisoblanadi:

etkazib beruvchi faoliyatining ochiq-oshkoraligini oshirish;

ochiq maâ€™lumotlarni eâ€™lon qilishning yagona texnologik va metodologik printsiplarini yoyish;

joylashtirilgan ochiq maâ€™lumotlardan koâ€™p marotaba, erkin va bepul foydalanishni taâ€™minlash;

foydalanuvchilarning etkazib beruvchilar bilan oâ€™zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;

etkazib beruvchilar va ularning faoliyati toâ€™gâ€™risida hamma erkin foydalanishi mumkin boâ€™lgan axborotni olishda foydalanuvchilar uchun byurokratik toâ€™siqlar va toâ€™gâ€™anoqlarni qisqartirish va bartaraf etish;

maâ€™lumotlar yangilanishi ustidan nazorat qilishning yagona texnologik platformasini, shuningdek maâ€™lumotlarni dolzarb holatda saqlab turish maqsadida ochiq maâ€™lumotlarni eâ€™lon qilish natijalari monitoring olib borilishini tashkil qilish.

6. Portal operatori Oâ€™zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining qarori bilan belgilanadi.

III. Portalda joylashtirish uchun taqdim etiladigan ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlarining axborot tarkibi

7. Portalda quyidagi shakldagi birlamchi maâ€™lumotlar ochiq maâ€™lumotlar shaklida majburiy joylashtirilishi lozim:

foydalanuvchilar oâ€™rtasida yuqori darajada talab qilinadigan maâ€™lumotlar va axborot;

etkazib beruvchi faoliyati toâ€™gâ€™risida hamma erkin foydalanishi mumkin boâ€™lgan axborot;

etkazib beruvchi faoliyatining asosiy sohalari boâ€™yicha statistik maâ€™lumotlar;

davlat axborot tizimlari va axborot resurslarida mavjud boâ€™lgan, oshkor etilishi qonun hujjatlari bilan cheklanmagan etkazib beruvchining maâ€™lumotlari va axboroti;

etkazib beruvchi tomonidan yaratilgan yoki oâ€™z vakolatlarini amalga oshirishda unga kelib tushgan hamma erkin foydalanishi mumkin boâ€™lgan axborot.

8. Internet tarmogâ€™ida ochiq maâ€™lumotlar shaklida joylashtirilishi kerak boâ€™lgan axborot hamda ularni joylashtirish muddatlari va yangilash davriyligini aniqlash 2013 â€” 2020 yillarda Oâ€™zbekiston Respublikasi Milliy axborot&kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi amalga oshirilishini muvofiqlashtirish respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat va xoâ€™jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining Ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlari roâ€™yxatiga muvofiq amalga oshiriladi.

9. Ochiq maâ€™lumotlar shaklida joylashtiriladigan axborot qoâ€™l yordamida hamda avtomatlashtirilgan rejimda taqdim etilishi mumkin.

10. Ochiq maâ€™lumotlarni etkazib beruvchi Portal operatori bilan kelishgan holda eâ€™lon qilinadigan axborotni yangilash tezkorligini, hajmi va tarkibini belgilaydi.

~~11. Portalda joylashtirish uchun taqdim etiladigan axborot dolzarb, ishonchli, yaxlit boâ€™lishi va davlat sirlarini yoki qonun bilan muhofazalanadigan boshqa sirni oâ€™z ichiga olmasligi kerak.~~

12. Portalda joylashtiriladigan axborot davlat tilida taqdim etilishi kerak. Portal boshqa tillardagi teng

ahamiyatli yoki qisqartirilgan versiyalarga ega bo'lishi mumkin.

IV. Ochiq maâ€™lumotlarni shakllantirish, ularni joylashtirish va qayta ishlash reglamenti

13. Oâ€™zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Ochiq maâ€™lumotlarni shakllantirish, ularni joylashtirish va qayta ishlash reglamentini (keyingi oâ€™rinlarda Reglament deb ataladi) ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

14. Reglament quyidagilarni:

Portal operatorining asosiy vazifalarini;

ochiq maâ€™lumotlarni Portalda joylashtirish va Portalda joylashtirilgan ochiq maâ€™lumotlar bilan ishlash maqsadida Portal operatori, ochiq maâ€™lumotlarni etkazib beruvchilar va foydalanuvchilarning oâ€™zaro hamkorligi tartibini;

ochiq maâ€™lumotlarni Portalda joylashtirish tartibini;

ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamining formatlariga va ularni rasmiylashtirish qoidalariga, shuningdek ularga kiritiladigan axborotning tarkibiga qoâ€™yiladigan talablarni;

ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlarining formatlariga va ularning pasportini rasmiylashtirish qoidalariga qoâ€™yiladigan talablarni;

ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamini va ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamining pasportini Internet tarmogâ€™ida joylashtirish qoidalarini belgilaydi.

V. Portal operatorining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

15. Portal operatori:

Portalning funksional imkoniyatlariga oâ€™zgartishlar kiritish, bu haqda keyinchalik foydalanuvchini xabardor qilishga;

eâ€™lon qilinadigan axborot hajmi va mazmunini ochiq maâ€™lumotlarni etkazib beruvchi bilan kelishishga;

ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlarini shakllantirish maqsadida ochiq maâ€™lumotlarni etkazib beruvchi bilan kelishgan holda keyinchalik ochiq maâ€™lumotlarni etkazib beruvchilar tomonidan toâ€™ldiriladigan shakllarni (jadvallarni) ishlab chiqish va tasdiqlashga haqlidir.

16. Portal operatori:

Portalning uzluksiz ishlashini, shu jumladan axborot xavfsizligi sohasidagi talablarga muvofiq ochiq maâ€™lumotlarning Portalda saqlanishi va himoyalashini taâ€™minlashga;

ochiq maâ€™lumotlarni etkazib beruvchilar tomonidan shakllantirilgan ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlari Portalda mashinada oâ€™qiladigan formatda, ochiq maâ€™lumotlardan takror foydalanishga toâ€™squinlik qiladigan cheklovlarsiz joylashtirilishini taâ€™minlashga;

Portalda joylashtirilgan ochiq maâ€™lumotlar foydalanuvchilari uchun doimiy ravishda foydalanish imkoniyatini taâ€™minlashga;

ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlarining pasportlarini tuzish, rasmiylashtirish va Portalda eâ€™lon qilishga;

Portalning dasturiy-texnik vositalari yordamida tushgan foydalanuvchilarning axborot xabarlarini tegishli ochiq maâ€™lumotlarni etkazib beruvchilariga, xabarlar foydalanuvchidan olingan kundan keyingi kundan kechiktirmay qayta ishlash va koâ€™rib chiqish uchun yuborishga;

Portalda eâ€™lon qilingan ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlari dolzarbligining doimiy monitoringini olib borishga;

Portaldagi talab kuchli bo'lgan ochiq ma'lumotlar to'plamlari statistikasining o'lon qilinishini ta'minlashga;

Portaldagi ochiq ma'lumotlar to'plamini yangilash muddati kechiktirilgan taqdirda ochiq ma'lumotlar etkazib beruvchini xabardor qilishga majburdir.

17. Portal operatori foydalanuvchilar tomonidan ochiq ma'lumotlardan foydalanish oqibatlari uchun, shu jumladan Portalda joylashtirilgan ochiq ma'lumotlardan foydalanish natijasida etkazilishi mumkin bo'lgan zarar uchun javob bermaydi.

VI. Ochiq ma'lumotlarni etkazib beruvchining huquq va majburiyatlari

18. Ochiq ma'lumotlarni etkazib beruvchi:

ushbu Nizomga, Reglamentga hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlar va Portalda majburiy o'lon qilinishi kerak bo'lgan ochiq ma'lumotlari to'plamlarining ro'yxatiga muvofiq Portal operatori tomonidan ishlab chiqilgan jadvallar (shakllar)ni to'ldirish yo'li bilan ochiq ma'lumotlar to'plamlarini shakllantirishga;

ochiq ma'lumotlarni Portalda joylashtirishning texnik masalalari bo'yicha Portal operatoriga murojaat etishga;

Portal operatori bilan kelishgan holda Portalda ochiq ma'lumotlarning qo'shimcha to'plamlarini o'lon qilishga haqlidir.

19. Ochiq ma'lumotlarni etkazib beruvchi:

Portalda ochiq ma'lumotlar to'plamlarini o'lon qilish masalalari bo'yicha mas'ul mansabdor shaxs tayinlanishini va uning aloqa qilinadigan ma'lumotlari Portalda o'lon qilinishini ta'minlashga;

ochiq ma'lumotlarning dolzarbligini baholash orqali, shu jumladan foydalanuvchilarning axborot xabarlarini qayta ishlash natijalari bo'yicha Portalda joylashtiriladigan ochiq ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliligi va dolzarbligini ta'minlashga;

ochiq ma'lumotlarning davriy ravishda yangilanishini ta'minlashga;

ochiq ma'lumotlarning qonun hujjatlariga muvofiqligini ta'minlashga;

Portalning dasturiy-texnik vositalaridan foydalangan holda yuboriladigan foydalanuvchilarning axborot xabarlarini 15 kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'lash talab etilsa " 1 oy muddatgacha ko'rib chiqish va javob berishga;

Reglamentda belgilangan majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarishga;

Portalda joylashtirish uchun ochiq ma'lumotlar to'plamlarini Portal operatoriga yuborishga, avval taqdim etilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan taqdirda " bu haqda Portal operatorini 3 ish kuni mobaynida xabardor qilishga majburdir.

VII. Foydalanuvchining huquq va majburiyatlari

20. Foydalanuvchi:

Portaldan foydalangan holda ochiq ma'lumotlarni olishga;

ochiq ma'lumotlarni qayta tiklash, ulardan nusxa olish, o'lon qilish va uzatishga;

~~ochiq ma'lumotlardan erkin, muddatsiz, bepul va foydalanish hududini cheklamasdan foydalanishga (shu jumladan takroran);~~

ochiq ma'lumotlarni tarqatish va qaytadan guruhlashga;

ochiq maâ€™lumotlarni moslashtirish, oâ€™zgartirish, bir shakldan boshqa shaklga aylantirish vaGâ€™yoki ular toâ€™plamlaridan axborotni chiqarib olishga;

ochiq maâ€™lumotlardan tijorat maqsadlarida, shu jumladan turli xildagi dasturiy mahsulotlar va ilovalarni yaratish uchun foydalanishga;

Portal operatoriga Portalning dasturiy-texnik vositalaridan foydalangan holda uning faoliyat koâ€™rsatish masalalari boâ€™yicha va etkazib beruvchilarga Å Portalda joylashtirilgan ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlari yuzasidan axborot xabarlarini yuborishga haqlidir.

21. Ochiq maâ€™lumotlardan foydalanganda Foydalanuvchi:

ochiq maâ€™lumotlardan faqat qonun hujjatlariga zid kelmaydigan maqsadlarda foydalanishga;

ochiq maâ€™lumotlardan foydalanishda axborot manbaiga havolani saqlashga majburdir.

VIII. Javobgarlik

22. Oâ€™zbekiston Respublikasi Ochiq maâ€™lumotlar portalida joylashtiriladigan axborotning oâ€™z vaqtida taqdim etilishi va ishonchliligi uchun ochiq maâ€™lumotlarni etkazib beruvchilarning rahbarlari shaxsan javob beradilar.

Oâ€™zbekiston Respublikasi Ochiq maâ€™lumotlar portalini toâ€™gâ€™risidagi [nizomga](#) ILOVA

Oâ€™zbekiston Respublikasi Ochiq maâ€™lumotlar portalini tashkil etish

SXEMASI

Bosqichlar	Harakatlar	Subâ€™ektlar	Muddatlar
1-bosqich	Ochiq maâ€™lumotlarni qayta ishlash reglamentini ishlab chiqish, tasdiqlash va davlat organlariga yuborish.	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	ikki hafta muddatda
2-bosqich	Portalda ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamini eâ€™lon qilish masalalari boâ€™yicha masâ€™ul mansabdor shaxsni tayinlash.	Davlat organlari	ikki hafta muddatda
3-bosqich	Oâ€™z vakolatini amalga oshirishda yaratiladigan va olinadigan ommabop axborotning inventarizatsiyasini oâ€™tkazish.	Davlat organlari	20 kun muddatda
4-bosqich	Internet tarmogâ€™ida joylashtirilishi majburiy boâ€™lgan Ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlarining roâ€™yxati loyihasiga kiritish uchun Vazirlikka takliflar kiritish.	Davlat organlari	25 kun muddatda
5-bosqich	Rasmiy veb-saytlarda va Portalda eâ€™lon qilinishi majburiy boâ€™lgan Ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlari roâ€™yxatining loyihasini Respublika komissiyasiga kiritish.	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, davlat organlari	bir oy muddatda
6-bosqich	Ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlarini yangilashning aniq muddatlarini va davriyligini belgilagan holda Roâ€™yxatni tasdiqlash.	Respublika komissiyasi	ikki hafta muddatda
7-bosqich	Oâ€™z rasmiy veb-saytlarida Å«Ochiq maâ€™lumotlar» boâ€™limini yaratish va unda tasdiqlangan Roâ€™yxatga muvofiq ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlarini eâ€™lon qilish.	Ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlari eâ€™lon qilinishi uchun masâ€™ul boâ€™lgan davlat organlari	Roâ€™yxat Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlanganidan soâ€™ng bir oy muddatda
8-bosqich	Portalda ochiq maâ€™lumotlar toâ€™plamlarini eâ€™lon qilish va yangilash.	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi,	Roâ€™yxat tasdiqlanganidan keyin

		ochiq maâ€™ lumotlar toâ€™ plamlari eâ€™ lon qilinishi uchun masâ€™ ul boâ€™ lgan davlat organlari	belgilanadigan muddatlarda
	Oldin taqdim etilgan maâ€™ lumotlar oâ€™ zgargan taqdirda Portal operatoriga ishlab chiqilgan ochiq maâ€™ lumotlar toâ€™ plami bilan birgalikda xabarnoma joâ€™ natish.	Ochiq maâ€™ lumotlar toâ€™ plamlari eâ€™ lon qilinishi uchun masâ€™ ul boâ€™ lgan davlat organlari	oâ€™ zgargan kundan boshlab uch kun muddatda
	Portaldagi ochiq maâ€™ lumotlar toâ€™ plamini yangilash muddati kechiktirilgan taqdirda davlat organini xabardor qilish.	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	kechiktirilgan kundan boshlab bir ish kuni davomida
9-bosqich	Foydalanuvchilarning Portaldagi dasturiy-texnik vositalardan foydalangan holda joâ€™ natiladigan axborot xabarlarini koâ€™ rib chiqish.	Ochiq maâ€™ lumotlar toâ€™ plamlari eâ€™ lon qilinishi uchun masâ€™ ul boâ€™ lgan davlat organlari	qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda
10-bosqich	Oâ€™ zbekiston Respublikasi Ochiq maâ€™ lumotlar portalida eâ€™ lon qilinadigan ochiq maâ€™ lumotlar toâ€™ plamlarini monitoringini olib borish.	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	har chorakda
11-bosqich	Roâ€™ yxatga oâ€™ zgartish va qoâ€™ shimchalar kiritish boâ€™ yicha, shu jumladan eâ€™ lon qilinadigan ochiq maâ€™ lumotlar toâ€™ plamlarini yangilash va dolzarb holatda saqlash masalasi boâ€™ yicha takliflar kiritish.	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	bir yilda kamida bir marta

2017-09-30 14:54:52